

## 2–6 YOSHLI BOG‘CHA BOLALARI ORASIDA AUTISTIK XULQ-ATVOR BUZILISHLARINI ANIQLASH

Rahimova Muqaddas Jumaqul qizi

Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali 2-kurs talabasi

Xolmo‘minov Azizbek Erkinovich

Asistent, Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali (Termiz, O‘zbekiston)

### Annotatsiya:

Mazkur tadqiqot 2–6 yoshli bog‘cha bolalari orasida autistik xulq-atvor buzilishlarini erta aniqlash masalasiga bag‘ishlangan. Ishda autizm belgilari, ularning yoshga doir ifodalanish shakllari va bog‘cha tarbiyachilari hamda ota-onalar uchun diagnostika usullari ko‘rib chiqiladi. Erta tashxis qo‘yish bolalarning keyingi rivojlanishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Tadqiqot natijalari, amaliy tavsiyalar va erta ogohlantirish tizimlari orqali autistik bolalarga tezkor yordam ko‘rsatish imkoniyatlari yoritiladi.

**Kalit so‘z:** Autizm, bog‘cha, bola, xulq-atvor, buzilish, tashxis, rivojlanish, aniqlash.

### Kirish

Autizm spektri buzilishlari (ASB) bola rivojlanishining murakkab nevropsixiatrik buzilishlaridan biri bo‘lib, ijtimoiy muloqotda qiyinchilik, stereotipik xatti-harakatlar va nutq rivojlanishidagi kechikish bilan xarakterlanadi. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (WHO, 2023) ma‘lumotlariga ko‘ra, dunyo bo‘yicha har 100 nafar boladan 1–2 tasi autizm tashxisi bilan ro‘yxatga olinadi. AQSHda esa autizm bilan kasallangan bolalar soni 2000-yildan 2022-yilgacha 5 barobarga ko‘paygan. O‘zbekistonda autizm bo‘yicha rasmiy milliy statistika mavjud emas, biroq psixiatriya amaliyotida autizm tashxisi qo‘yilgan bolalar soni yildan-yilga ortib bormoqda. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki<sup>1</sup>, erta tashxis qo‘yilib, rehabilitatsiya boshlangan bolalarda ijtimoiy va nutqiy ko‘nikmalarni shakllantirish samaradorligi – kech tashxislanganlarga nisbatan 2–3 baravar yuqori (Zwaigenbaum et al., 2015). Shu sababli autistik xulq-atvor buzilishlarini erta aniqlash (ayniqsa, 2–6 yosh oralig‘ida) dolzarb hisoblanadi.

**Material va metodlar:** Tadqiqot 2025-yilda Termiz shahridagi 6 ta maktabgacha ta‘lim muassasasida o‘tkazildi. Tadqiqot obyekti sifatida 1201 nafar 2–6 yosh oralig‘idagi bolalar tanlab olindi.

<sup>1</sup> <https://www.mayoclinic.org/diseases-conditions/autism-spectrum-disorder/symptoms-causes/syc-20352928>



2. M-CHAT-R/F ,CARS hamda ADOS-2 testlari erta yoshda autizm skriningi uchun samarali vosita ekanligi tasdiqlandi.
3. Ota-onalar va tarbiyachilarni autizmning dastlabki belgilari bo'yicha muntazam o'qitish va xabardor qilish zarur.
4. Erta tashxis qo'yilgan bolalarda psixokorreksion mashg'ulotlar, logopedik terapiya va ABA terapiya natijadorligi yuqori.
5. Respublikada autizm bo'yicha milliy skrining dasturi ishlab chiqilishi va maktabgacha ta'lim muassasalarida joriy etilishi tavsiya etiladi.

#### ADABIYOTLAR:

1. Симашкова.Н.В. Клиникобиологические аспекты расстройств аутистического спектра / Н.В.Симашкова –Москва, 2016.
2. Лепская Н.И. Язык ребенка: онтогенез речевой коммуникации / – Москва 2017.
3. Petrovskiy A.V. Umumiy psixologiya. – T.: «O'qituvchi», 1992. Davletshin M.G.
4. Zamonaviy maktab o'qituvchisi psixologiyasi. – T.: TDPU nashriyoti, 1997.
5. Umumiy psixologiya, yosh psixologiyasi va pedagogik psixologiya. Gomezo tahririda. – T.: «Sharq», 1982.
6. Nishonova Z. Bolalar psixodiagnostikasi. – T.: TDPU nashriyoti, 1999.
7. G'oziyev E. Intellect psixologiyasi. – T.: «O'qituvchi», 1996. G'oziyev E. Inson psixikasining rivojlanishi. – T.: «O'qituvchi», 1996.
8. Рогов А.И. Настольная книга школьного психолога. – М.: «Знание», 2004.
9. Кривоногова А.С., Цыплакова Методы исследования проблем профессионального образования // Вестник Мининского университета. 2017.